O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VALUTANI TARTIBGA SOLISHNING ILG‘OR BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Ergashov Sardor To‘lqin o‘g‘li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti,
6BI-22 guruh talabasi
Tel: +998885318141
E-mail: ergashovs510@gmail.com


Jumayev Alisher G‘ulom o‘g‘li
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti,
6BI-22 guruh talabasi
Tel: +998976907070
E-mail: jumayeva5@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20623762

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonRespublikasida valutani tartibga solish tizimini modernizatsiya qilish, ilg‘or bozor mexanizmlarini joriy etish va ularning bank tizimi hamda milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida valutani erkinlashtirish jarayonlari, Markaziy bank siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan istiqbolli takliflar yoritilgan.
Kalit so‘zlar: valuta siyosati, valuta bozorini liberallashtirish, bozor mexanizmlari, konvertatsiya, bank ishi,milliy valuta, investitsiya muhiti, iqtisodiy barqarorlik.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida valuta siyosatini isloh qilish, valuta bozorini liberallashtirish va milliy valutaning barqarorligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil 2-sentabrdagi Prezidentning “Valuta siyosatini liberallashtirish to‘g‘risida”gi PF–5177-son Farmoni ushbu yo‘nalishda burilish nuqtasi bo‘ldi. Mazkur hujjat orqali milliy valuta – so‘mning konvertatsiyasi erkinlashtirildi, valuta operatsiyalariga bo‘lgan cheklovlar bekor qilindi va valuta kursini bozor mexanizmlari orqali shakllantirish tizimi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasida valuta bozorinitartibga solishning hozirgi bosqichi asosan erkin kurs shakllanishi, valutaning konvertatsiya darajasini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan.

Bozor mexanizmlarining mohiyati. Ilg‘or bozor mexanizmlari deganda davlat tomonidan qat’iy tartibga solish o‘rniga, valuta kursi va taklifi bozor talabiga asosan shakllanadigan tizim tushuniladi. Bunda Markaziy bankning roli — bozorni muvozanatda ushlab turish va keskin tebranishlarning oldini olish bilan chegaralanadi. Shu yo‘l bilan valuta bozorida shaffoflik, raqobatbardoshlik va ishonchlilik darajasi ortadi.

O‘zbekiston amaliyotida liberallashtirishnatijalari. 2017-yildan buyon valuta kursi rasmiy va norasmiy bozorlarda bir xil yo‘nalishda shakllana boshladi. Bu holat qora bozorni yo‘qotish, valuta ayirboshlash jarayonlarini qonuniylashtirish va valyuta resurslarining bank tizimi orqali aylanishini ta’minlash imkonini berdi. Shuningdek, xorijiy sarmoyadorlar uchun iqtisodiyotning ochiqligi kuchaydi, banklararo valuta bozorining hajmi keskin oshdi.



1-diagramma. 2017–2024-yillarda USD/UZS kursining o‘zgarishi

Ilg‘or mexanizmlarni joriy etish tajribalari.Xalqaro amaliyotda (masalan, Turkiya, Qozog‘iston, Polsha tajribasi) valuta bozorida bozor mexanizmlarini qo‘llash bank sektorining mustahkamlanishiga, tashqi qarzlarni boshqarish tizimining samarali ishlashiga xizmat qilgan.O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiyalarining qisqarishi, “suzuvchi kurs” tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, shuningdek, derivativ instrumentlardan foydalanish kabi mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Hozirda valuta bozorining to‘liq liberallashuvi ayrim xavflarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, dollarlashuv darajasining yuqoriligi, valuta kursining tez-tez o‘zgarishi (volatillik), shuningdek, banklararo bozorda yetarli likvidlikning yo‘qligi iqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu borada quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: milliy valuta ishonchliligini oshirish uchun ichki ishlab chiqarishni kengaytirish; eksportni rag‘batlantirish orqali valuta tushumlarini ko‘paytirish; banklarning valuta risklarini boshqarish tizimini kuchaytirish; valuta derivativlarini joriy etish orqali bozor ishtirokchilarining risklarini kamaytirish.

Istiqboldagi yo‘nalishlar. Kelajakda valuta siyosatini takomillashtirishda asosiy e’tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratilishi zarur: valuta kursini suzuvchi tartibda shakllantirish; banklararo valuta bozorida raqobatni kuchaytirish; valuta intervensiyalarini kamaytirish va bozor tamoyillariga asoslangan monitoring tizimini yaratish; raqamli valuta (digital currency) texnologiyalarini joriy etish orqali valuta operatsiyalarining shaffofligini oshirish.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi valuta siyosatini liberallashtirish yo‘lida muhim natijalarga erishdi. Valuta kursining bozor mexanizmlari orqali shakllanishi iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlab, xalqaro investitsiyalar oqimini ko‘paytirdi va bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirdi. Shu bilan birga, valutani tartibga solishdagi yangimexanizmlar—suzuvchi kurs, risklarni boshqarishvositalari, valuta derivativlari—mamlakatiqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Kelgusida valuta siyosatini yanada takomillashtirish uchun moliyaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish, milliy valutaga ishonchni oshirish va bank tizimida xalqaro standartlarni kengroq joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF–5177-son Farmoni “Valuta siyosatini liberallashtirish to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari (2022–2024-yillar).
3. Jahon banki. Uzbekistan Economic Update, 2024.
4. Karimov Sh. “Valuta siyosatining iqtisodiy o‘sishga ta’siri”. – TDIU Ilmiy jurnali, 2023.
5. www.cbu.uz, www.stat.uz, www.imf.org ma’lumotlari.